



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 346 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash 10	Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari 14	Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari 19	Dadonova Aziza Tulkunovna
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili 23	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi 30	Tuksanova Zilola Izatulloyevna
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili 35	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi 41	Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish 47	Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli 50	Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari 54	Qobilov Voxidjon Zoxidovich
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку 58	Мухамеджанова Римма Рашидовна
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari 66	Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili 70	Sadriddinova Feruza Meliyevna
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish 75	Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar 80	Qudratov O'ktam G'ofurovich
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari 85	Tursunov Xusniddin Isomovich
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari 88	Safarova Halovat Barnoyevna
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari 91	Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap) 97	Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli 101	Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Talabalarda maqsadga intiluvchanlik namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari va shakllanish jarayonlari	335
Babadjanova Saiyora Khushnutovna	
Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida stress va vaqt bosimini boshqarish usullari.....	340
Xalilova Soxibaxon Sadikjanovna	



TALABALARDA MAQSADGA INTILUVCHANLIK NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA SHAKLLANISH JARAYONLARI

Babadjanova Saiyora Khushnutovna

Associate Professor, Department of Biotechnology
Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

Annotatsiya: Maqolada talabalarda maqsadga intiluvchanlik fenomenining tizimli-funksional tabiati tahlil qilingan. A.N. Leontev va D.A. Leontev konsepsiyalari sintezi asosida maqsad shakllanishining 4 bosqichli modeli (kognitiv filtratsiya, motivatsion sintez, emotsional integratsiya va irodaviy tartibga solish) ishlab chiqilgan. Maqsad tizimidagi uzilishlar natijasida yuzaga keladigan disfunktsiyalar (soxta maqsadlar, deklarativlik, ma'nosizlik, prokrastinatsiya) va ularni oliy ta'lim amaliyotida koreksiyalash yo'llari nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: maqsadga intiluvchanlik, tizimli model, kognitiv filtratsiya, motivatsion sintez, emotsional integratsiya, irodaviy tartibga solish, shaxsiy ma'no, akademik prokrastinatsiya.

Abstract: This article analyzes the systemic-functional nature of goal-directedness in university students. Based on the integration of A.N. Leontyev's and D.A. Leontyev's frameworks, a four-stage goal-realization model (cognitive filtration, motivational synthesis, emotional integration, and volitional regulation) is developed. The study theoretically substantiates goal system dysfunctions (pseudo-goals, declarativeness, meaninglessness, procrastination) and provides psychological correction strategies for higher education practice.

Key words: goal-directedness, systemic model, cognitive filtration, motivational synthesis, emotional integration, volitional regulation, personal meaning, academic procrastination.

Аннотация: В статье анализируется системно-функциональная природа феномена целеустремленности студентов. На основе синтеза концепций А.Н. Леонтьева и Д.А. Леонтьева разработана 4-этапная модель целеполагания (когнитивная фильтрация, мотивационный синтез, эмоциональная интеграция и волевая регуляция). Теоретически обоснованы дисфункции, возникающие при сбоях в системе целей (псевдоцели, декларативность, смысловой вакуум, прокрастинация), и пути их коррекции в практике высшего образования.

Ключевые слова: целеустремленность, системная модель, когнитивная фильтрация, мотивационный синтез, эмоциональная интеграция, волевая регуляция, личностный смысл, академическая прокрастинация.

KIRISH

Bugungi shiddatli globallashuv, raqamli transformatsiyalar va axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti sharoitida oliy ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, yuqori intellektual salohiyatga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining eng ustuvor va strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:¹ "Biz yurtimizda uchinchi Renessans poydevorini barpo etishni strategik vazifa qilib qo'ydik... Buning uchun yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz, ularda maqsad sari intilish, tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishimiz zarur ^[4]."

Ushbu ijtimoiy-siyosiy vazifa talabalarning shaxsiy va professional yetuklik parametrlarini, xususan, ularning ichki psixologik resurslarini ilmiy asosda tadqiq etishni taqozo qiladi. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli² qarori, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847³-sonli farmoni hamda PF-6097⁴-sonli farmonlari talaba-yoshlarning intellektual va irodaviy salohiyatini ro'yobga chiqarishning normativ-huquqiy asosini yaratib berdi ^{[1][2][3]}. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim muassasalarida ta'lim

1 <https://dunyo.info/news/uchinchi-renessans-oyasi-vat-izmiga-bwysunmas-abadiy-oya>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-3171590>

3 <https://lex.uz/docs/-4545884>

4 <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>



sifatini oshirish, talabalarning mustaqil ta'lim olish faolligini oshirish va ularning kasbiy sotsializatsiyasini ta'minlashga doir kompleks chora-tadbirlarida bevosita bo'lajak mutaxassis shaxsini tizimli tadqiq etish, ularning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish muhim vazifa qilib belgilangan.

Talabalik davri - shaxs taraqqiyotining eng dinamik va professional sotsializatsiya bosqichi bo'lib, unda maqsadga intiluvchanlik (goal-directedness) muvaffaqiyatning bosh integratori sifatida namoyon bo'ladi. Biroq zamonaviy ilmiy paradigmalarda ushbu fenomenning tabiatini tushunishda jiddiy nazariy bo'shliqlar (lakunalar) mavjud. An'anaga ko'ra, empirik tadqiqotlarda maqsadga intiluvchanlik ko'pincha shaxsning tayyor tabiatli, statik xislati yoki oddiygina irodaviy sifatlar yig'indisi sifatida tor doirada talqin qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Vaholanki, fundamental psixologiya maktablari vakillari bu jarayonning ancha murakkab ekanligini ta'kidlaganlar.

Xorij psixologiyasida E. Lork va G. Latem maqsadni shunchaki intilish emas, balki kognitiv kuchlanishni talab qiluvchi murakkab regulator tizim sifatida asoslagan bo'lsa, E. Desi va R. Rayn maqsadga intilishning barqarorligi uning ichki motivlar tizimiga qay darajada o'tganligiga bog'liqligini isbotlagan ^{[10][11]}.

MDH psixologiya maktabida S. L. Rubinshteyn va A. N. Leontevning faoliyat nazariyasida maqsad faoliyatning ongli ravishda rejalashtirilgan mahsuli bo'lib, u shaxsning motivlar iyerarxiyasi bilan bevosita bog'liq ^{[6][8]}.

D. A. Leontev maqsadni shaxsiy ma'nolar tizimi orqali tushuntirib, ma'nosiz maqsad barqaror bo'la olmasligini ko'rsatgan ^[7].

O'zbekistonda psixologiya maktabining rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan akademik E. G'oziyev talabalik davridagi maqsad shakllanishini kognitiv mustaqillik va tafakkurning tizimlili bilan bog'lab, talabaning mustaqil qaror qabul qilish mexanizmlarini tahlil qilgan ^[5].

R. I. Sunnatova esa talabalar faoliyatida o'z-o'zini tashkil etish va irodaviy boshqaruvning psixologik qonuniyatlarini ochib bergan ^[9].

Ushbu nazariyalarning sintezi shuni ko'rsatadiki, maqsadga intiluvchanlik subyektning ichki olamida doimiy ravishda kechadigan, ko'p darajali, dinamik va tizimli-funksional psixologik jarayondir.

Hozirgi davr talabalarida esa, yuqoridagi nazariyotchilar ogohlantirganidek, deklarativ (nominal) maqsadlar qo'yish va real amaliy harakatlar o'rtasidagi uzilish kuchaymoqda. Maqsadning shakllanish bosqichlarida kognitiv dissonans, prokrastinatsiya, tashqi bosimlar ostida soxta maqsadlarni qabul qilish va irodaviy kuchlanishning barvaqt so'nishi kabi psixologik to'siqlar kuzatilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik arxitekturasida talabalar shaxsida maqsadga intiluvchanlikning namoyon bo'lish qonuniyatlarini statik xislat sifatida emas, balki dinamik, ko'p darajali va tizimli-funksional psixologik jarayon sifatida konseptuallashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda empirik-metrik yondashuvlardan chekingan holda, fundamental nazariy tahlil, tizimli-funksional modellash, qiyosiy-germenevtik interpretatsiya va konseptual sintez metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi konseptual yondashuvlar integratsiyasi olindi:

1-jadval: Talabalarda maqsadga intiluvchanlikni tadqiq etishning nazariy-metodologik integratsiya modeli

Metodologik daraja	Asosiy yondashuv va prinsiplar	Funksional mohiyati va tadqiqotdagi o'rni
I. Falsafiy-metodologik asos	- Tizimlilik prinsipi - Subyektlik prinsipi	Maqsadga intiluvchanlikni shaxsning kognitiv, motivatsion va irodaviy tuzilmalari yaxlitligi hamda talabaning o'z hayotiy strategiyalarini belgilovchi faol subyekt sifatidagi o'rnini belgilaydi.
II. Nazariy-metodologik integratsiya	- Tizimli-funksional yondashuv (B.F.Lomov) - Faoliyat va ma'no nazariyalari (A.N.Leontyev, D.A.Leontyev ^{[6][7]}) - O'z-o'zini determinatsiya qilish nazariyasi (E.Deci, R.Ryan ^[10]) - Kognitiv maqsad nazariyasi (E.Locke, G.Latham ^[11])	- Maqsadni ko'p quyi tizimli makrosistema sifatida o'rganadi. - Maqsadning shaxsiy ma'no (personal meaning) bilan to'yinishini asoslaydi. - Ichki va tashqi motivlar kolliziyasini baholaydi. - Maqsad aniqligi va harakat drayverlarini ko'rsatadi.
III. Yangi konseptual model	Maqsadga intiluvchanlik – tizimli-dinamik jarayon sifatida	Maqsadni statik xislat emas, balki kognitiv filtratsiya, motivatsion sintez, emotsional integratsiya va irodaviy tartibga solish bosqichlaridan iborat uzluksiz "ishlab chiqarilish" konveyeri sifatida modellashiradi.



- Tizimli-funksional yondashuv** (B. F. Lomov, V. D. Shadrikov). Ushbu yondashuv maqsadga intiluvchanlik fenomenini alohida ajratilgan irodaviy yoki motivatsion xislat sifatida emas, balki shaxsning kognitiv, determinatsion (motivatsion), emotsional va irodaviy quyi tizimlarining uzviy sintezidan iborat yaxlit psixologik makrotizim sifatida tadqiq etish imkonini beradi. Tizimlilik prinsipi talabani maqsadga yo'naltirilgan faolligini uning umumiy shaxsiy taraqqiyoti kontekstida o'rganishni taqozo etadi ^[11].
- Tizimli-faoliyatli yondashuv va ma'no konsepsiyasi** (A. N. Leontev, S. L. Rubinshteyn, D. A. Leontev). Ushbu metodologik asos doirasida maqsad va motiv munosabatlari tahlil qilinadi. Maqsadga intiluvchanlik shunchaki texnik rejalashtirish emas, balki faoliyatning shaxsiy ma'no bilan to'yinish jarayonidir. D. A. Leontevning ma'no-maqsadlar konsepsiyasi maqsadning shaxs tomonidan "ichki qabul qilinishi" mexanizmini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi ^{[6][7][8]}.
- O'z-o'zini determinatsiya qilish (Self-Determination) nazariyasi** (E. Desi, R. Rayan). Mazkur nazariya talabalarda maqsadga intiluvchanlikning drayveri bo'lgan motivatsion kolliziyalarni tahlil qilishda metodologik filtr vazifasini bajaradi. U talabani maqsadni qabul qilishida avtonomlik (mustaqillik) va tashqi bosim (majburiyat) o'rtasidagi dialektik aloqani konseptualashtirishga imkon beradi ^[10].
- Subyekt-faoliyatli yondashuv va mustaqillik konsepsiyasi** (E. G'oziyev, R. I. Sunnatova). O'zbek psixologiya maktabining ushbu yo'nalishi talabani o'z ta'limiy va kasbiy traektoriyasini loyihalovchi faol subyekt sifatida belgilaydi. Akademik E. G'oziyevning kognitiv mustaqillik g'oyalari talabani maqsadni ongli ravishda "ishlab chiqarishi" va uni tashqi destruktiv omillardan himoya qila olishi (psixologik immunitet) mexanizmlarini tushuntirishda bosh metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi ^{[5][9]}.

Nazariy tadqiqotning prinsipial bosqichlari

Ushbu nazariy-metodologik tadqiqot uchta ketma-ket bosqichda amalga oshirildi:

- Konseptual dekonstruksiya.** Maqsadga intiluvchanlik fenomeniga doir mavjud xorijiy, MDH va milliy ilmiy adabiyotlar, nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi hamda ulardagi uslubiy cheklanishlar (fenomenning statik talqin qilinishi) aniqlandi.
- Strukturaviy-funksional modellash.** Maqsadga intiluvchanlikning ichki psixologik "konveyeri" tahlil qilinib, uning kognitiv, motivatsion, emotsional va irodaviy komponentlari o'rtasidagi funksional aloqalar tizimlashtirildi.
- Disfunksiyalar tipologiyasini yaratish.** Maqsad shakllanishi tizimidagi ichki uzilishlar nazariy model-lashtirilib, ularning psixologik tabiati konseptual tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarda maqsadga intiluvchanlikning tizimli-funksional modeli

Nazariy tahlillarimiz natijasida talabalarda maqsadga intiluvchanlik shaxsning statik xislati emas, balki kognitiv, motivatsion, emotsional va irodaviy quyi tizimlarning o'zaro aloqasidan iborat dinamik psixologik konveyer ekanligi aniqlandi. Ushbu tizimli jarayon to'rtta asosiy bosqich orqali "ishlab chiqariladi".

2-jadval: Talabalarda maqsadga intiluvchanlikning "ishlab chiqarilish" bosqichlari va psixologik mexanizmlari modeli

Tizimli bosqich	Kirish elementi (Nimalar kiradi?)	Asosiy psixologik mexanizmlar	Chiqish natijasi (Nima ishlab chiqariladi?)
1-bosqich: Kognitiv filtratsiya	Talabani birlamchi individual ehtiyojlari va orzulari	- Kognitiv modellash - O'z-o'ziga ishonch - Imkoniyatlar tahlili	Ideal (nominal) maqsad
2-bosqich: Motivatsion sintez	Ideal maqsad va tashqi sotsial talablar	- Motivatsion kolliziyani hal etish - Tashqi motivlar internalizatsiyasi (A.N. Leontyev ^[6])	Avtonom va barqaror maqsad
3-bosqich: Emotsional-intellektual integratsiya	Avtonom maqsad va shaxsiy qadriyatlar	- Emotsional baholash va anticipatsiya - Ma'no hosil qilish (D.A. Leontyev ^[7])	Shaxsiy ma'no kasb etgan faol maqsad
4-bosqich: Irodaviy tartibga solish	Shaxsiy ma'noli maqsad va real hayotiy to'siqlar	- Ongli ravishda ma'no kuchaytirish - Diqqatni jamlash va psixologik immunitet	Natijaga yo'naltirilgan turg'un harakat



Maqsadga intiluvchanlik tizimidagi psixologik disfunktsiyalar va to'siqlar

Maqsadni "ishlab chiqarish" konveyerining istalgan bir bo'g'inidagi funksional uzilish butun tizimning inqiroziga (maqsadga erisha olmaslik yoki soxta maqsadlar qurboniga aylanishga) olib keladi. Biz ushbu psixologik to'siqlar va disfunktsiyalarni zanjirning bosqichlari bo'yicha tizimlashtirdik.

3-jadval: Maqsadga intiluvchanlik tizimidagi disfunktsiyalar va konseptual to'siqlar tasnifi

Bosqichlar	Yuzaga keladigan tizimli disfunktsiya	Psixologik tabiati va mexanizmi	Namoyon bo'lish xususiyati (Talabadagi simptomlar)
1. Kognitiv filtratsiya bosqichi	Soxta (illyuzor) maqsadlar shakllanishi	Subyekt o'z imkoniyatlarini noto'g'ri baholaydi yoki sotsial kutilmalarni filtrarsiz qabul qiladi. O'z- o'ziga ishonch va real resurslar nomutanosibligi.	Talaba o'z imkoniyatlaridan haddan tashqari yuqori yoki o'ta past maqsadlar qo'yadi. Kognitiv chalg'ish yuz beradi.
2. Motivatsion sintez bosqichi	Motivatsion kolliziya va Deklarativlik	Ichki drayverlar (kasbiy qiziqish) va tashqi imperativlar (ota-ona, ijtimoiy bosim) o'rtasidagi konflikt. Tashqi motivlarning internalizatsiya bo'lmasligi.	"Maqsad deklaratsiyasi va harakat uzilishi". Talaba maqsadni og'zaki e'lon qiladi, lekin uni amalga oshirishga ichki intilish sezmaydi.
3. Emotsional-intellektual integratsiya	Kognitiv-emotsional dissonans (Ma'nosizlik)	D.A. Leontyev bo'yicha "ma'noviy vakuum". Maqsad ratsional (intellektual) jihatdan to'g'ri deb topiladi, biroq emotsional jozibaga ega bo'lmaydi.	Talaba "Bu diplom menga kerak, lekin meni mutlaqo qiziqitirmaydi" degan ichki ziddiyat bilan yashaydi. Apatiya va loqaydlik.

Taklif etilgan tizimli model va disfunktsiyalar tahlili talabalarda maqsadga intiluvchanlik fenomeniga yangicha yondashish imkonini beradi.

A. N. Leontev faoliyat tizimida maqsad faqat ehtiyoj obyekti (motiv) bilan uchrashgandagina real harakatlantiruvchi kuchga ega bo'ladi. Agar talabada tashqi motivlar internalizatsiyalanmasa (2-bosqich), maqsad deklarativ shaklda qolib ketadi va amaliy harakatga o'tmaydi [6].

D. A. Leontevning shaxsiy ma'nolar konsepsiyasi doirasida kognitiv darajadagi har qanday ideal maqsad shaxsning qadriyatlar tizimiga o'tishi shart (3-bosqich) [7]. Agar maqsad "sovuq" ratsional formula bo'lib qolsa va emotsional integratsiyani boshdan kechirmasa, tizimda "ma'noviy vakuum" yuzaga keladi va bu akademik neytralizm yoki loqaydlikka olib keladi.

Akademik prokrastinatsiya vaqtini noto'g'ri boshqarish (yalqovlik) emas, balki irodaviy va emotsional tizimning himoya mexanizmidir (4-bosqich). Maqsad yo'lidagi kognitiv va emotsional bosimga bardosh bera olmagan subyekt irodaviy tizimni bloklaydi. Buni bartaraf etish faqatgina majburlash (tashqi iroda) orqali emas, balki maqsadning shaxsiy ma'nosini qayta ongli ravishda kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda maqsadga intiluvchanlik statik xislat emas, balki kognitiv, motivatsion, emotsional va irodaviy bosqichlarni birlashtiruvchi dinamik konveyerdir. Uning samaradorligi talabaning akademik va kasbiy o'zligini anglash darajasiga bog'liq.

Maqsad tizimidagi uzilishlar (prokrastinatsiya, soxta maqsadlar) shaxsiy qadriyatlar va tashqi talablar nomutanosibligidan kelib chiqadi. Faqatgina shaxsiy ma'no (D. A. Leontev bo'yicha) bilan yo'g'rilgan maqsadgina barqaror irodaviy tartibga solishni faollashtiradi va prokrastinatsiyaga qarshi immunitet hosil qiladi.

Psixolog va tyutorlar uchun. Maqsad diagnostikasida oddiy Goal Setting o'rniga Purpose in Life (PIL) testini qo'llash; prokrastinatsiyani vaqtini boshqarish (time management) orqali emas, balki irodaviy ma'no hosil qilish treninglari orqali korreksiya qilish.

O'qituvchi va metodistlar uchun. O'quv fanlari mazmunini talabaning kasbiy kelajagi (shaxsiy ma'nosi) bilan bog'lash orqali tashqi motivlarni internalizatsiya qilish; loyihaviy ta'lim orqali talabalarda o'z-o'ziga ishonchni mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-290-sonli Qarori. 2017-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. 09.10.2019-y.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni. 30.10.2020-y.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: "Tasvir", 2022. - 416 b.
5. G'oziyev E.G. Oliy maktab psixologiyasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1997. - 184 b.
6. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Смысл, Академия, 2005. - 352 с.
7. Леонтьев Д. А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. - 3-е изд. - М.: Смысл, 2007. - 511 с.
8. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер, 2002. - 720 с.
9. Суннатова Р. И. Индивидуально-типические особенности когнитивной активности личности. - Ташкент: Фан, 2007. - 156 с.
10. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "What" and "Why" of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior. *Psychological Inquiry*, 11(4), 227-268.
11. Locke, E. A., & Latham, G. P. (2002). Building a practically useful theory of goal setting and task motivation: A 35-year odyssey. *American Psychologist*, 57(9), 705-717.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.